



IQBOL MIRZO SHE'RIYATIDA METAFORALARNING QO'LLANILISHI

Usmonova Mashhura Zafarjon qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
filologiya fakulteti, 1-bosqich talabasi

E-mail: mashhurausmonova777@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15680716>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10- Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 14- Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 17- Iyun 2025 yil

KEY WORDS

O'xshatish belgisi, konkret o'xshatish, abstrakt o'xshatish, detal, kechinma, metafora, ramz, obraz, poetik tahlil, jonlantirish, an'ana.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo she'riyatida qo'llanilgan metaforalar tahlil qilingan. Metaforalarning she'riyatda poetik vazifa bajarishi, ijodkorning takrorlanmas ma'no ko'chish uslublaridan foydalanish mahorati shoir she'rlari asosida tahlil qilingan

Insoniyat tarixida tushunchani anglashning eng qulay usuli bu bir narsani ikkinchi biriga o'xshatib tasavvur etishdir. O'xshatishning tasviriy vosita sifatida badiiy adabiyotda tutgan o'rnini beqiyos. Nutqqa obrazlilik, ta'sirchanlik baxsh etish maqsadida ikki narsa yoki hodisa o'rtasidagi o'xshashlik, muvofiqlik asosida ularning biri o'rnida xuddi shu ma'noni anglatadigan so'z yoki ibora ko'chma ma'noda qo'llaniladi. [2] O'xshatish – ikki xil narsani qiziqarli tarzda taqqoslaydigan nutq figurasi hisoblanib, o'quvchining yoki tinglovchining ongida qiziqarli aloqani boshlash uning maqsadidir. O'xshatish majoziy tilning keng tarqalgan shakllaridan biri bo'lib, uni she'riy matnlardan tortib kundalik nutqimizda (suvga tushgan mushukdek, to'tidek gap qaytarmoq) ham uchratishimiz mumkin. She'riyatda esa o'xshatishlar orqali shoirning badiiy g'oyasi, ilmiy salohiyatining darajasi, estetik baholash miqyosi oydinlashadi. Iqbol Mirzo she'riyatida o'xshatishlar asosan, “sog'inch”, “yurak” tushunchasi bilan bog'liq istioraviy misralarda uchraydi. Iqbol Mirzoning “Vatan sog' bo'lsin!”, “Ata Bayit”, “O'zbek”, “Bir kun”, “Kirib borayotgan mahalim kuzga”, “Senga xatlar yozdim”, “Sochlaring fatila”, “Kuzda”, “Kuygan yorda yozilgan she'r” kabi bir qator she'rlari so'zimizga dalil bo'la oladi. [3:13-58]

Tilshunoslikka oid ilmiy manbalarda o'xshatishlarning ikki turi mavjud ekanligi qayd etiladi. Ya'ni:

- 1) individual-muallif o'xshatishlari, konkret yoki erkin o'xshatishlari;
- 2) umumxalq, abstrakt yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar. [4.5]

Erkin (konkret) o'xshatishlar muallifning o'ziga xos original o'xshatishlari bo'lib, u muallifning mahoratini bevosita belgilaydi, she'rni ko'z oldimizda jonlantiradi. Masalan, shoirning quyidagi she'rida ushbu o'xshatish turini ko'rishimiz mumkin:

Ulkan qabrlarda ko'rinar qirlar,

Ha, cho'ng dardga loyiq mozar ham kerak.

Bu joyga tiriklay ko'milgan erlar,
Farzandin diydori eng so'nggi tilak. [3.5]

Shoir ushbu to'rtlikda farzandini kutayotgan ota-ona kechinmalarini o'xshatishlar orqali ifodalab bermoqda. Lirik qahramonga qirlar qabr kabi ko'rinayotgani va bu his og'riqli ekanini tasvirlangan. Qirlar qabrga o'xshatilmoqda. Sog'inchga to'la ota-onaning ko'zlariga xatto dashtdagi qirlar ham qabr kabi ko'rinayotgani aks ettirilgan. Bu erkin o'xshatish bo'lib, **-day** qo'shimchasi vositasida amalga oshirilganini ko'rishimiz mumkin.

Iqbol Mirzo she'riyati o'xshatishlarga va mavzu ko'lamiga boy. Badiiy nutqda shoir tomonidan yaratilgan o'xshatishlar poetik matnning yangidan yangi badiiy-estetik qirralarini kashf etadi.

Sen neni bilasan, osmondagi qiz?

Bahorday bildirmay qariydi bu his.

Esiz, yoshligimiz, sevgilarimiz..

Bugun sevgi oddiy ishga aylandi. [3.58]

Yuqoridagi to'rtlikda esa, o'shatilgan va o'xshatilayotgan predmet ham yaqqol ko'zga tashlanib turganini ko'rish mumkin. Ya'ni, lirik qahramon bu yerda aynan ijodkorning o'zi, u oniy lahzalarda kechadigan sevgini bahorga qiyos etmoqda. Chunki bahor fasli fasllar ichida eng go'zali va o'zgachasi, aynan ilk muhabbat ham inson hayotidagi unutilmas, doim tabassum bilan eslanadigan davr bo'lgani kabi. Shu asnoda ijodkor sof sevgisini bahordek tezda o'tib ketganini va erishilmagan tuyg'ularini ifodalab kelgan.

Turg'un (astrakt) o'xshatishlarning mohiyati shundan iboratki, ularda o'xshatish etaloni ifodalangan obraz barqarorlashgan bo'ladi, bunday o'xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo'llagan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg'unlashgan, umumxalq tili leksikasidan joy olib ulgurgan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar xuddi tilda tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi. [4.6]

Iqbol Mirzo she'rlarida tog', burgut, bo'ri kabi ramziy obrazlar o'z ifodasini topgan bo'lib, aynan o'xshatish etaloni bo'lib xizmat qilganini ko'rishimiz mumkin. Tasviriy ifodalar va g'oyalar an'anaviyligi, asosan, bir adabiy davr ijodkorlarining na'munalarida ko'zga tashlanadi. Keskinlik, haqqoniylik va yuqorida sanab o'tilgan ramziy obrazlardan birdek unumli foydalanish jarayonini Usmon Azim, Azim Suyun va Iqbol Mirzo she'rlarida uchratishimiz mumkin. Albatta, har bir ijodkor bu ramzlarni o'z she'rlarida yangicha talqin etadi:

Lolazor misoli dog' edi bag'rim,

Necha yil bu dashtda chechak unyadi.

Shudringdek tovlanib ketdi-da mehrim,

Yur, baxtli bo'lamiz desam ko'nmadi.

Yuqoridagi to'rtlikda qo'llanilgan yurak, bag'r kabi birliklar lolazorga o'xshatilgan. Metaforik jarayon **misoli, -dek** unsurlari asosida yuzaga chiqmoqda va aynan sog'inchdan, uzoq vaqtli ayriliqdan qip-qizil bo'lgan, qon bo'lgan bag'rining ham ichida lolanikidek qora dog'lar qolganini, faqatgina tongda ko'zni qamashtiradigan shudringdek ming xil jilolangan tuyg'ularini izhor etganida go'zal yor uni rad etganini, shu voqeadan so'ng yuragida qayta sevgi uchqunlaganini, xuddiki bir giyoh va chechak unmaydigan quruq dashtdek hissiz qolganini yetkazishga xizmat qilmoqda. Muallif she'rlari qaysi mavzuni yoritmasin o'zida o'kinch, sog'inch, adolat, vatanga, ota-onaga va suyuqlisiga bo'lgan bitmas-tuganmas mehr-

muhabbatini o'zida namoyon etaveradi. U yaratgan har bir o'xshatish va obrazdan zavqlanamiz.

Daraday huvillar edi quchog'im,

Ko'zim va quchog'im birdek to'lmadi.

Menga ishonmadi, tushunmadi chog'im,

Yur, baxtli bo'lamiz desam ko'nmadi.

O'xshatishlar ikki xil ko'rinishda bo'lishi mumkin, ya'ni **1) qo'shimchalar va so'zlar bilan hosil qilinadigan-belgili metaforalar** (-dek, -day, misoli, go'yo, kabi, xuddi, misli, go'yoki, o'xshash va h.k) va **2) to'g'ridan-to'g'ri qo'llaniladigan o'xshatishlar- belgisiz.**

O'shanda (oq osmon, qo'ng'ir yer guvoh...)

Dilimni bilardi majnuntol bargi.

Kaftimda yo'q edi zig'irdek gunoh,

Yo'q edi kaftimning zarradek gardi -

O'shanda men seni yaxshi ko'rardim...

Ushbu to'rtlikda metafora zig'irdek, zarradek so'zlari orqali belgili tarzda ishlatilgan, yoki:

Men ham ishonmasdim, avval aytsalar,

Tovonim silagan mayin maysalar.

Yotsam, yuragimga urar nayzalar..

Qosh kabi maysalar nishga aylandi.

Yuqoridagi to'rtlik bor bo'y-basti bilan metaforik birikma, o'xshatishning eng go'zal namunasi. Shoir "Kuzda" she'rida metaforik sifatlashga yordam beradigan -dek, -day, kabi, xuddi kabi til unsurlaridan unumli foydalangan Bu o'xshatishlar qachonlardir yorning qoshi kabi mayin va chiroyli maysalar, yorning bergan azoblari kabi unga zarar keltirganini, nayzadek yuragini yaralaganini, ishonishni xohlamagan bevafoqlik unga o'qdek yuragiga botayotganini ifodalamoqda.

Ba'zan Iqbol Mirzo she'rlarida metaforik o'xshatishning belgisiz tarzda ifodalanganining guvohi bo'lishimiz mumkin:

O'shanda (oq osmon, qo'ng'ir yer guvoh...)

Ismimni bilardi qayrag'och bargi.

Yuragim tomida yotgan qiz'aldoq,

Kapalak haqida qo'shiq aytardi.

Xulosa qilib aytganda, shoir she'rlaridagi o'xshatishlar she'rning emtosional-ekspressiv ta'sirchanligini, ifodaliligini hamda obrazlilikini ta'minlovchi vosita sifatida qo'llanilgan. Shuningdek, shoirning o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida qo'llanilib, shoirning so'z qo'llash mahoratining o'ziga xos namunasi bo'lib xizmat qilgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand, 1994. – 196 b.
2. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. –B.13-58.
3. Mahmudov H., Xudoyberganov D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. - Toshkent: Ma'naviyat, 2013. – B. 5-6.
4. <https://www.izohli.uz/words/TAXAYYUL>